

O'ZBEK TILINING SINTAKTIK SATHIDA LEKSIK YAXLITLIK TAMOYILI UNIVERSAL SINTAKTIK BOG'LIQLIK MISOLIDA

Dilobar SULAYMANOVA*

Annotatsiya: Ushbu maqolada formal-funksional tilshunoslikda so'zlar ustuvorligiga asoslanadigan leksik yaxlitlik tamoyilining mazmun-mohiyati va uning sintaktik sathda voqelanishi yoritiladi. Qurilish ashyosi bo'lgan so'zning gap shakllanishiga bevosita yoki bilvosita ta'sir etishi, ya'ni markaz sifatida o'z atrofida muayyan bo'laklarni birlashtirishi yoki kengaytiruvchi sifatida qurshov vazifasini bajarishi ochib beriladi. So'zlarning universal sintaktik bog'lanishdagi muhim morfemalar sifatida morfo-sintaktik munosabatlarga kirishishi, potensial gap mavqeyini istalgan [W] ga beruvchi [Pm] ning maqomi va ushbu valentlikning formal-funksional tilshunoslikda markaz qurshovlilik munosabati deb ataladigan pog'onaviylikka asos solishi misollar yordamida tahlil qilinadi. Universal sintaktik bog'lanish (USB/UD) yondashuvining ko'p tillarga moslashtirilgan qulay tizim yaratishga xizmat qilishi o'zbek tilidagi sintaktik birliklar misolida ochib beriladi. Xilma-xil tillarning tillararo izchil tahlili uchun mustahkam asos vazifasini bajaradigan ushbu nazariyaning nafaqat kompyuter yordamida tabiiy tilni tushunishga yordam berishi, balki keng qamrovli lingvistik tadqiqotlarga ham manba bo'la olishi ilmiy asoslanadi.

Kalit So'zlar: *Leksik Yaxlitlik, Universal Sintaktik Bog'liqlik – USB, Markaz Qurshovlilik, Gap Va So'Z Kengaytiruvchilari*

The Principle of Lexical Integrity at the Syntactic Level of the Uzbek Language: A Case Study of Universal Dependency

Abstract: This article highlights the essence of the lexical integrity principle, which prioritizes words in formal-functional linguistics, and its realization at the syntactic level. The direct or indirect influence of a word, as a structural element, on sentence formation—either by acting as a center that unites specific components around itself or as an extender fulfilling an enclosing function—is examined. The incorporation of words into morpho-syntactic relations as crucial morphemes in universal syntactic connections, the status of [Pm] which grants potential sentence status to any [W], and the foundation this valency lays for the hierarchical relationship known as center-periphery in formal-functional linguistics are analyzed using examples. The study also demonstrates how the Universal Dependency (UD) approach contributes to the development of a flexible system adaptable to multiple languages, using syntactic units in Uzbek as a case study. This theory is scientifically substantiated not only for its role in facilitating natural language understanding through computational means but also for serving as a valuable resource for comprehensive linguistic research.

Keywords: *Lexical Integrity, Universal Dependency – (UD), Head-Dependent Relations, Sentence And Word Expanders.*

Kirish

Ma'lumki, o'zbek tilshunosligi oldidagi muhim vazifalardan biri – bu lisoniy birliklarning sistema sifatida tadqiqi, ularni tashkil etgan ichki uzvlarning o'zaro munosabatini belgilash masalasidir. Bu esa o'z navbatida sintaktik birliklarning gap tuzilishidagi o'rni, ularning ichki uzvlariga xos o'zaro semantik-struktur munosabatini belgilash hamda xarakterli xususiyatlarini ochish muhim ekanligini anglatadi. Semantik-struktur uyg'unlik yaqqol namoyon bo'ladigan sintaksisning azaliy masalalaridan biri aloqa-aralashuvning asosiy birligi – kommunikativ birlik bo'lgan gapni tarkibiy qismlarga ajratish, gap bo'laklari va har bir bo'lakning gap qurilishidagi o'rni masalasidir.

Sintaktik sathda leksik va grammatik birliklarnig voqelanishi, ularning lingvistik tabiatini *pog'onali (iyerarxik) munosabat* tushunchasisiz tasavvur qilib bo'lmaydi, zero, "pog'ona atamasining asl mohiyati sathlar o'rtasidagi stratifikativ bog'lanishda o'z ifodasini topadi" (Xayrullayev, 2010: 12). Izohlash uchun aytish mumkinki, sintaktik sath qatlam ma'nosini, qatlam tushunchasi esa markaz va qurshov munosabatini taqozo etadi, mazkur munosabatdagi a'zolar esa pog'onali shaklda joylashadi.

[WPm] qolipidagi [W] va [Pm] – [NMTP] kabi nisbatan mustaqil bo'lgan qismlar o'zaro faqat gap markazi mavqeyida kelgandagina birikadi. [W] esa gapda xilma-xil mavqeda kelishi mumkin. Undan farqli ravishda har qanday atov birlik bilan bog'langan [NMTP] unga hukm ma'nosini, fikriy mundarijani bera oladi. [NMTP] atov birligi vazifasida kela oladigan birliklar

* PhD., Mirzo Ulug'bek Nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti Tadqiqotchisi, e-mail: dilobar7796@gmail.com, ORCID: <https://orcid.org/0009-0003-9162-0044>

(leksema, erkin va turg'un birikmalar, chegarali qurilmalar) bilan birika olgani bois bu ma'noni ifodalay olmaydigan birliklar (jumladan, fonema, grafema, morfema va h.z.) bundan mustasnodir. Potensial gap mavqeyini istagan [W] ga [NMTP] beradi va bu semantik-sintaktik valentlik formal-funksional tilshunoslikda *markaz qurshovlilik munosabati (universal sintaktik bog'liqlik)* deb ataladigan pog'onaviylikka asos vazifasini bajaradi.

1. Tadqiqotda Qo'llanilgan Metodlar

O'zbek tilining sintaktik sathida leksik yaxlitlik tamoyili asosida *universal sintaktik bog'liqlik modeli*, uning sodda va qo'shma gaplarga tatbiqini yoritishda tasniflash, tavsiflash transformatsion, distributiv, qiyoslash, komponent va kontekstual tahlil metodlaridan foydalanildi.

2. Mavzuga Oid Adabiyotlar Tahlili

2.1. Jahon Tilshunosligida Leksik Yaxlitlik Tamoyiliga Oid Tadqiqotlar

Jahon tilshunosligida sintaktik birliklarning semantik-struktur munosabat tadqiqida an'anaviy tilshunoslik tamoyillariga asosan universal sintaktik bog'liqlik (UD)da iyerarxik munosabatlarning tayanch birligi sifatida so'zlar olinadi. Chunki so'zlar – universal sintaktik bog'lanishdagi muhim elementlar sifatida morfo-sintaktik munosabatlarga kirishadi.

So'zlarning ustuvorligi *leksik yaxlitlik tamoyiliga* asoslanadi. (Chomsky, 1970: 11-66). Ushbu tamoyilga muvofiq turli morfemik elementlardan tashkil topuvchi birlik - so'z sintaktik sath tuzilmalaridan farqli tarkibiy tamoyillar asosida hosil bo'ladi.

Leksik va grammatik birliklarni tillararo izchil tarzda tasnif va tavsiflashda qiyinchiliklar paydo bo'lsa-da, jumladan, klitiklar, qo'shma so'zlar va inkorporatsiya hodisalari bilan bog'liq murakkabliklarni yuzaga kelsa-da, USB (UD) qonuniyati so'zlarni kichik tarkibiy qismlar, xususan, morfemalarga ajratish o'rniga, yaxlit leksik birlik sifatida belgilash yondashuviga asoslanadi va bu tadqiq usuli USB tizimini qo'llash imkoniyati va tadqiq obyekti bo'lgan tillar qamrovini kengaytiradi. Mazkur yondashuvda morfologiya nazariyasidagi rivojlanishlarga tayangan holda so'zga asoslangan abstrakt modellarning morfemaga asoslangan konstruktiv modellardan ustun jihatlari asoslab beriladi (Stump, 2001: 531–573).

Jahon tilshunosligida universal sintaktik bog'liqlik (UD) mavzusining yoritilishi Marie-Catherine de Marneffe, Christopher D. Manning, Joakim Nivre va Daniel Zeman nomlari bilan bog'liq bo'lib, USB (UD) qolipining lingvistik asosi, tamoyillari va tatbiqi borasida, shuningdek, universal sintaktik annotatsiya tizimini yaratish orqali turli tizimli tillarning sintaktik xususiyatlarini yagona formatda ifodalash bo'yicha samarali ishlar amalga oshirildi.

Jumladan, ularning tadqiqotlarida universal sintaktik bog'liqlik (UD) qolipining lingvistik asosi, tamoyillari va tatbiqi bo'yicha batafsil ma'lumot berilgan bo'lib, unga ko'ra, ushbu xalqaro lingvistik qolip dunyo tillarining morfosintaktik tadqiqiga hamda turli tillar uchun muayyan, izchil belgilash tizimini ta'minlash orqali ko'p tilli tahlil va tadqiqotlarni osonlashtirishga mo'ljallangan va hozirda hozirgi kunga qadar 100 dan ortiq til uchun treebanklar yaratishda foydalanilgan.

Tadqiqotda universal sintaktik bog'liqlik qolipining nazariy asoslari va joriylanishi haqida keng qamrovli izlanishlar yoritiladi. Ushbu loyiha ko'p tilli tahlil va tadqiqotlar uchun muhim manba sifatida turli tillarning morfo-sintaktik xususiyatlarini izchil belgilash orqali tabiiy tilni qayta ishlash sohasida yangi imkoniyatlar yaratadi (De Marneffe va boshqalar, 2021: 255).

2.2. O'zbek Tilshunosligida Formal-Funksional Yo'nalishga Doir Adabiyotlar Tahlili

Tilshunoslikka ilk bor S.D.Katsnelson tomonidan olib kirilgan valentlik tushunchasi ushbu mavzu atrofidagi qator ilmiy tadqiqotlarning yaratilishiga sabab bo'ldi. Jumladan, L.Tener tomonidan valentlik nazariyasiga asos solindi hamda verbosentrik nazariyaga ko'ra fe'l gap shakllantiruvchisi sifatida olinib, ushbu talab bilan fe'lga bog'lanib kelgan otlar, keyinchalik barcha kengaytiruvchilar aktantlar atamasi ostida keng qo'llana boshlandi. Bu borada dastlab olim S.N.Ivanov formal-funksional nuqtayi nazardan lingvistik birlik mohiyatiga yondashib, o'z

tadqiqotlarida til qurilishining substansial dialektik tadqiq usullarini umumlashtirdi. M.Asqarova, G'.Abdurahmonov, A.Berdialiyevlarning, shuningdek, A.Nurmonov, N.Mahmudovlarning ilmiy tadqiqotlarida gap uzvlarining o'rinlashuvi formal (shakl) jihatdan o'rganilgan bo'lsa (Mahmudov, 1984: 41), R.Sayfullayeva, M.Qurbonova, M.Abuzalova, Sh.Akramov, S.Nazarova, R.Bobokalonov kabi o'zbek tilshunos olimlari olib borgan izlanishlarda gapning lisoniy qurilishida substansional yondashuv masalasi, markaz va qurshov munosabati yoritildi.

O'tgan asrning ikkinchi yarmigacha bo'lgan davrda o'zbek tilshunosligida lingvistik birliklarning asosan struktur tomoniga e'tibor qaratildi, semantik jihati esa ikkinchi darajada edi, faqat oxirgi choragiga kelibgina ana shu bo'shliqni to'ldirish harakati diqqat markaziga aylandi va natijada sintaktik birliklarning semantik-struktur munosabatini tadqiq etishga bag'ishlangan bir qancha tadqiqotlar maydonga keldi.

O'zbek tilshunosligida bahs va munozaralar obyekti bo'lgan semantik va sintaktik, lisoniy hamda nutqiy valentlik mavzusiga asosli yechim tilshunos R.Rasulov tomonidan berildi. Olim kontekstual juftliklarning tanlanishida (semantik belgilari asosida) muvofiqlarining nisbiy valentlik hosil qilishi, nomuvofiqlarining inkor qilinishi asosida amalga oshishi, bu o'z navbatida obyektiv voqelik hodisalari bilan motivlanishini izohlab berdi (Rasulov, 1989: 16).

Tilshunoslik tarixida sintaksisni, xususan, markaz va qurshov munosabati, gapdagi bo'laklar (kengaytiruvchilar), ularning amaliy va noamaliy mavqeyi masalasini o'rganish uzoq va boy tajribaga ega bo'lib, uning talqini masalasida turlicha bahsli yondashuvlar, shuningdek, o'zbek tilshunosligida ilmiy va ijtimoiy zaruratlar taqozosi asosida formal-funksional tahlil usullarining asosiy tamoyillari ishlab chiqildi (Qurbonova, 2001: 17).

O'zbek tilida USB tahlili (dependency parsing) masalasi tilshunos N. Z.Abdurahmonova ishlarida atroflicha yoritilgan bo'lib, o'zbek matnlarini sintaktik tahlil qilish yo'nalishidagi tadqiqot natijalarida o'zbek tili agglutinativ til sifatida murakkab morfologik tuzilishga ega ekanligi, shu bois USB tamoyillarini qo'llash va moslashtirishda qiyinchiliklar ochib beriladi (Abdurakhmonova, 2019: 164-168). O'zbek tilining morfo-sintaktik xususiyatlarni inobatga olgan holda annotatsiya qoidalari hamda o'zbek tilida tuzilgan korpusga asoslangan holda USB parsing modeli ishlab chiqilgan. Modellarning aniq ishlashi yuzasidan natijalar tahlil qilinib, kamchiliklar va takomillashtirish yo'nalishlari belgilangan.

O'zbek tilidagi gaplarning umumiy tuzilishi *SOV* (subyekt – obyekt – fe'l) tartibiga amal qilgani bois barcha so'z turkumlari deyarli fe'lga bog'langanligi sababli, u erkin komponentli tartibga ega ekanligi, ya'ni gap tarkibidagi so'zlar joylashuvining o'zgarishi ma'no o'zgarishiga olib kelmasligi asosli misollar yordamida tahlilga tortilgan. Bu esa, olima ta'kidlaganidek, grammatik morfemalar yordamida murakkab tuzilmalarning shakllanishiga sabab bo'ladi. Ushbu tadqiqot o'zbek tilida avtomatik USB tadqiqi rivojiga salmoqli hissa qo'shib kelmoqda.


Shuningdek, tadqiqotchilar A.Axundjanova va L.Talamo tomonidan kompyuter lingvistikasi va tabiiy tilni qayta ishlash sohasida muhim qadam sifatida e'tirof etilgan o'zbek tilidagi birinchi Uzbek-UT (UD) daraxt bankining yaratilishiga bag'ishlangan tadqiqot ishi yuzaga keldi (Akhundjanova, Talamo, 2025: 1-6).

3. O'zbek Tilining Sintaktik Sathida USB Sodda Va Qo'shma Gaplar Misolida

Tillar iyerarxik tuzilishga ega bo'lib, gaplar va nominal birliklar o'z tarkibiga boshqa birliklarni olishi mumkin. USB bog'lanishli grammatika (dependency grammar) modeliga asoslanishi, bunda har bir iyerarxiyaning bosh so'zi va unga bog'liq elementlar mavjud. Markaz va kengaytiruvchilarning shajara daraxtida nisbiy yoki mutlaq markazdan kengaytiruvchi elementga yo'naltirilgan belgi yordamida pog'onaviylik asosida iyerarxik bog'lanadi. Verbosentrik nazariya talqiniga ko'ra predikatli USB larda mustaqil fe'lni mutlaq markaz sifatida yordamchi fe'llarni esa kengaytiruvchi shaklida izohlanadi.


Turli tillarning sintaktik va morfologik sathini yagona tizimda va muayyan formatda tahlil qilish imkonini beradigan, lingvistik va NLP tadqiqotlarida aniq va izchil natijalarga erishish

uchun yaratilgan jahon tillarining morfosintaktik annotatsiyasi qolipi (UD) da gapdagi kengaytiruvchilar quyidagi USB asosida o‘rinlashadi.



Rasm 1. Jahon tilshunosligida USB qolipi (ingliz tili misolida)

Ushbu yondashuv ko‘p tillarga moslashtirilgan qulay tizim yaratishga yordam beradi. USBni o‘zbek tilidagi birliklar misolida quyidagicha ifodalash mumkin:



Rasm 2. O‘zbek tilidagi sintaktik birliklarda universal sintaktik bog‘lanish (UD)

Ushbu munosabat mazmun-mohiyatiga ko‘ra, so‘z gapning qurilish ashyosi bo‘lganligi sababli gap qurilishiga bevosita yoki bilvosita ta’sir etadi, ya’ni markaz sifatida o‘z atrofida muayyan bo‘laklarni birlashtirishi yoki kengaytiruvchi sifatida qurshov vazifasini bajarishi mumkin. Bunda markaz va qurshov munosabati gapning lisoniy sintaktik qurilishida quyidagi ko‘rinishlarda voqelanadi:

1. [W] – gap kesimining lug‘aviy ma’no ifodalovchi qismining kengaya olish imkoniyati (valentligi).

2.[Pm], ya’ni [NMTP] – kesimlik kategoriyasi ko‘rsatkichining kengayish xususiyati.

Kesimning mazkur komponentlari kengaytiruvchi (aktant)lari turli nom bilan ataladi va pog‘onaviy tahlilda turli mavqeda keladi. (Qurbonova, 2001: 120)

Gap markazi (kesim)ni shakllantiruvchi vosita kesimlik ko‘rsatkichi ekanligi bois sintaktik sathdagi bo‘laklar iyerarxiyasini kesimdagi leksema va kesimlik kategoriyasi [NMTP]ning valentligi belgilaydi. Gap tarkibidagi bo‘laklar ana shu konstuent – kesimning qaysi qismiga aloqador bo‘lishiga ko‘ra ikki guruhga bo‘linadi:

1. Gap kengaytiruvchilari – gap markazini tashkil etuvchi so‘zdagi kesimlik kategoriyasi shakllariga bog‘lanuvchi bo‘laklar. Ma’lumki, gapning markazi sanalgan kesimni ushbu vazifada kelayotgan so‘z va kesimlik kategoriyasining valentligi shakllantiradi va gapning lisoniy qurilishida quyidagi nutqiy hodisa yuzaga chiqadi: so‘zlar gapning markazini ifodalovchi shakl (predikat)ning kesimlik kategoriyasi ko‘rsatkichiga tobelanadi (Sayfullayeva va boshqalar, 2009: 331). Ta’kidlash joizki, gap kengaytiruvchilari nutqda voqelangan muayyan gapga emas, balki o‘zbek lisoniy sathi uchun umumiy bo‘lgan gapga aloqador kengaytiruvchilardir (Qurbonova, 2001: 127).


2. So‘z kengaytiruvchilari – gap kesimining leksik ma’no anglatuvchi qismi [W] yoki ikkinchi kostuent – ega yoki fakultativ bo‘laklar bilan valentlik hosil qiluvchi kengaytiruvchilar.

Ayrim manbalarda payt holi (temporalis – lotincha so‘z bo‘lib, “vaqt” ma’nosini beradi) gap kengaytiruvchisi sifatida talqin qilinadi (Sayfullayeva va boshqalar, 2009: 335). Jumladan, Hozirgi o‘zbek adabiy tili darsligida sodda gapning formal-funksional talqinida temporalis

kesimlik kategoriyasi shaklining zamon qismiga bog'lab tahlil qilinadi va gap kengaytiruvchisi sifatida keltiriladi. Vaholanki, temporalis gap tarkibida nafaqat kesimlik kategoriyasi [Pm] tarkibidagi [T] zamon ko'rsatkichi, balki gap markazini tashkil etuvchi so'zning leksik qismi [W] bilan ham valentlik hosil qiladi. Masalan, *Siz bugun va ertaga azim Samarqandda qolasizmi?* gapida uyushiq temporalislar (*bugun* va *ertaga*) kesimning [W] qismiga ham, morfologik shakllari [Pm]dan [T] zamon ko'rsatkichiga ham aloqador.

Payt hollarining kelasi zamon ko'rsatkichi bilan nisbiy moslashuvi quyidagicha: *ertaga* temporalisi va *-a* kelasi zamon qo'shimchasi nutq so'zlanib turgan vaqtdan keyingi hodisaga ishora qilsa, *bugun* so'zi va zamon shakli nutq yuzaga kelayotgan vaqtni bildirishi nuqtayi nazaridan bog'lanadi. (-a zamon ko'rsatkichi bugun temporalisi bilan moslashganda, zamon uslubi yuzaga keladi, ya'ni kelasi zamon shakli hozirgi zamon ma'nosiga ko'chadi).

Bundan xulosa qilish mumkinki, temporalisning kesimlik shakli bilan hosil qilgan valentligida subyekt singari gap kengaytiruvchisi sifatida qaraladi hamda kesimning lug'aviy shakliga kiritilgan o'zgartirishlar ushbu valentlik munosabatiga ta'sir qilmaydi, ya'ni fikriy mundarijada lug'aviy ma'no ifodalovchi qism [W]da o'zgarishga uchrasa-da, kesimlik kategoriyasi ko'rsatkichi [Pm]ning zamon ko'rsatkichi [T]da bunday holat voqelanmaydi:



Rasm 3. [WPm]da temporalis valentligi

Temporalisning so'z kengaytiruvchisi mavqeyida kela olishini quyidagicha izohlash mumkin: payt holi o'zi bog'langan hokim so'z bilan birgalikda so'z birikmasiga aylantirilib, kesim harakat nomi shaklida [NMTP] ko'rsatkichlarsiz shakllantirilsa ham, ushbu valentlik munosabati (*bugun qolmoq*, *ertaga qolish*) saqlanadi. Gap va so'z kengaytiruvchilari bog'lanishi hamda shajara daraxtidagi mavqeyini quyidagicha ifodalash mumkin:

[WPm]	S (Subyekt)	Adv ¹ (tempo valic)	Adv ² (tempo valic)	Attr	Adv ³ (lokali)	W	N	M	T	m
	Siz	bugun	ertaga	azim	Samarqanda	qol	.	-a, -siz	-a	-siz

Jadval 1. Sodda gap tarkibiy qismlari

1. So'z kengaytiruvchilari [WE] valentligi


bugun qolmoq
ertaga qolmoq
azim Samarqand
Samarqandda qolmoq

Siz qol+a+siz+mi?
Bugun qol+a+siz+mi?

2. Gap kengaytiruvchilari [SE] valentligi

Ertaga qol+a+siz+mi?

[]
[]
[]



Rasm 4. [W] – so‘z kengaytiruvchilari kengaytiruvchilari

Rasm 5. [SE] – so‘z

Teng tarkibli qo‘shma gaplarda ushbu munosabat hamda aktantlar (gap va so‘z kengaytiruvchilari)ning pog‘onaviylikdagi maqomi shajara daraxtda quyidagicha ifodalanadi:

Teng tarkibli qo‘shma gap [WPm¹+WPm²]	<i>Obj S Adv [WPm] Obj S Attr [WPm]</i> <i>Baxtni har kim o‘zicha tushunadi: kimgadir u orzular</i> <i>ro‘yobidir.</i>
---	---

Jadval 2. Teng tarkibli qo‘shma gap aktantlari

Baxtni har kim o‘zicha tushunadi: kimgadir u orzular ro‘yobidir teng tarkibli qo‘shma gap tarkibiy qismlaridagi so‘zlar valentligining tahlili quyidagicha:

USB daraxti (UD)	
[WPm ¹]	WPm ²]
C¹(root) WE (obj) SE (nsubj) WE (adv)	C²(root) WE (obj) SE (nsubj) WE (attr)

Jadval 3. Teng tarkibli qo‘shma gapda markaz va qurshovlilik

Teng tarkibli qo'shma gap [WP_m¹+ WP_m²]	<i>Obj</i> <i>Kimgadir</i>	<i>S</i> <i>baxt</i>	<i>Attr</i> <i>orzular</i>	<i>[WP_m]</i> <i>ro'yobidir,</i>
	<i>Obj</i> <i>kingadir</i>	<i>S</i> <i>u</i>	<i>Attr</i> <i>yaqinlarining</i>	<i>[WP_m]</i> <i>hayot ekanligi(dir).</i>

Jadval 4. 1-teng tarkibli qo'shma gapda aktantlar

[WP_m¹+ WP_m²+ WP_m³]	<i>Obj</i> <i>Baxtni</i>	<i>S</i> <i>har kim</i>	<i>Adv</i> <i>o'zicha</i>	<i>[WP_m]</i> <i>tushunadi:</i>	<i>Obj</i> <i>kingadir</i>	<i>S</i> <i>u</i>	<i>Attr</i> <i>orzular</i>	<i>[WP_m]</i> <i>ro'yobidir.</i>
	<i>Obj</i> <i>kingadir</i>	<i>S</i> <i>baxt</i>	<i>Attr</i> <i>yaqinlari</i>	<i>[WP_m]</i> <i>sog'lig'i(dir).</i>				

Jadval 5. 2-teng tarkibli qo'shma gapda aktantlar

4-jadvalda keltirilgan murakkab qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar aktantlarining maqomi, gap yoki so'z kengaytiruvchisi vazifasida kelishini quyidagi USB (UD) tahlilida ko'rish mumkin:

[WP _m ¹]	WP _m ²	WP _m ³]

Jadval 6. USB daraxti (UD). Mutanosib tarkibli qo'shma gap [WP_m¹+ WP_m²+ WP_m³]da markaz qurshovlilik

Xulosa

Zamonaviy tilshunoslikning formal-funksional yo'nalishi talqini va tasnifiga asoslangan holda qo'shma gaplar tarkibiy qismlarining (lisoniy) sistema sifatidagi tadqiqi, xususan, ularni tashkil etgan ichki uzvlarning o'zaro munosabatini belgilash masalasi o'zbek tilshunosligi oldidagi navbatdagi muhim vazifalardan biri sanaladi. Bugungi kunda o'zbek tilshunosligida aynan shu talablarga asosan olib borilayotgan qator tadqiqotlar singari mazkur maqola belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Maqolada yoritilgan o'zbek tilidagi sodda va qo'shma gaplar tarkibiy qismlar semantik-sintaktik valentlik asosida shakllangan bo'lib, har bir tarkibiy qism o'z konstuentlari va aktantlariga ega. Turli vositalar yordamida sintaktik munosabatga kirishgan mazkur sodda va qo'shma gap mantiqiy bog'liqlikdagi yaxlit, izchil axborotni ifodalash imkonini beradi. Bu esa USB modeli (UD annotatsiyasi)da gaplar tarkibidagi va ular o'rtasidagi iyerarxik munosabatlar hamda pog'onaviylikdagi aktantlar joylashuvini to'la ifodalash imkonini beradi.

Ushbu tadqiqot predmeti snanalgan jahon tillarining *universal sintaktik bog'liqlik USB (UD) qolipi* esa turli tillar uchun universal sintaktik annotatsiya tizimini yaratish yo'lidagi xalqaro ilmiy harakat bo'lib, mazkur qolip orqali turli tizimli tillarning sintaktik xususiyatlarini yagona andozada ifodalash sintaktik bog'lanishlar barqarorligini ta'minlashga imkon beradi. Ushbu modelning har xil grammatik tuzilishga ega tillarga moslashish xususiyati tillararo sintaktik tafovutlarni tahlil qilishni osonlashtiradi. Bu nazariya xilma-xil tillarning tillararo izchil tahlili uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilgani sababli nafaqat kompyuter yordamida tabiiy tilni tushunishga yordam beradi, balki keng qamrovli lingvistik tadqiqotlarga ham manba bo'la oladi.

ADABIYOTLAR

- Abdurakhmonova, Nilufar (2019), "Dependency parsing based on Uzbek Corpus", *InProceedings of the International Conference on Language Technologies for All (LT4All)*, Paris, France, p.164-168.
- Akhundjanova, A., Talamo, L. (2025), "Universal Dependencies Treebank for Uzbek", *Proceedings of the Third Workshop on Resources and Representations for Under-Resourced Languages and Domains (RESOURCEFUL 2025)*, Saarland University, Germany, p.1-6, <https://dspace.ut.ee/items/628b9d0b-647b-493c-b3c7-9526ea2978b8>
- Chomsky, Noam (1970), "Remarks on nominalization". *Readings in English Transformational Grammar* (Roderick A. Jacobs and Peter S. Rosenbaum, editors), Ginn and Co., p.11–61.
- De Marneffe, Marie-Catherine va boshqalar (2021), "Universal Dependencies". *Computational Linguistics* 47(2): 255, <https://direct.mit.edu/coli/article/47/2/255/98516/Universal-Dependencies>
- Mahmudov, Nizomiddin (1984), *O'zbek tilidagi sodda gaplarda semantik-sintaktik asimmetriya*. Toshkent: O'qituvchi.
- Qurbonova, Muhabbat (2001), *O'zbek tilshunosligida formal-funksional yo'nalish va sodda gap qurilishining talqini*, Filol. fan. d-ri ... diss., Toshkent.
- Rasulov, Ravshanxo'ja (1989), *O'zbek tilidagi holat fe'llari va ularning obligator valentliklari*, Toshkent: Fan.
- Sayfullayeva, Ra'no va boshqalar (2009), *Hozirgi o'zbek adabiy tili*, Toshkent: Fan va texnologiya.
- Stump, Gregory T. (2001), *Inflectional Morphology: A Theory of Paradigm Structure*. Cambridge University Press. DOI: <https://doi.org/10.1017/CBO9780511486333>
- Xayrullayev, Xurshid (2010) *Til va nutq birliklarining pog'onali munosabati*: Filol. fan. dok. ... diss. avtoref. – Toshkent, 12-b.